

"Zakovat" intellektual o'yini g'oliblari aniqlandi.

// 30.05.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/zakovat-intellektual-o-yini-g-oliblari-aniqlandi>



"Zakovat" intellektual o'yini g'oliblari aniqlandi.

Bugun 24 ta jamoa "Rahbar kubogi" uchun bahs olib bordi.

Toshkent kimyo-texnologiya instituti talabarlari intellektual o'yinda zukkolik va jamoaviy ahillikni namoyon etib, 1-o'rinni zabt etishdi.

"Yangi O'zbekiston" universitetining bilimga chanqoq talabalaridan tashkil topgan 2 ta jamoa ham 2-va 3-o'rinlarni egallashdi.

Qizg'in va do'stona ruhda o'tgan ushbu bahslar yoshlar o'rtasida jamoa bo'lib ishlash, aqlni charxlash va bir-birini qo'llab-quvvatlash kabi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qildi.

G'olib bo'lgan bo'lajak kimyogarlarni yuksak natija bilan tabriklaymiz!



uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26







"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati